
INSON TAFTINI INSON OLADI

Keksalik yoshiga yetib borish ham ne'matlardan biri hisoblanadi. Yurtimizning tabarruk yoshdagi otaxon-u onalarimizning holidan xabar olib tursak, ularga imkonimiz darajasida oqibat, mehr-muruvvat ko'rsatsak ulkan savoblarga ega bo'lish bilan birga ularning hayotiy tajribalari hamda turmush saboqlaridan foydalana olishimiz mumkin.

□ Qiynalganda yordam qo'lini cho'zish, mehr-oqibat ko'rsatish xalqimizga xos fazilatlardan. Qadri baland qadriyatlar tufayli yuzlab oilalar holidan xabar olinib, ko'ngil so'ralmoqda, quvonch-shodlik ulashilmoqda. ☞ "Keksalarni e'zozlash, ularga hurmat-ehtirom ko'rsatish - xalqimizga xos ezgu fazilat" g'oyasi ostida o'tkazilayotgan "Keksalar haftaligi" doirasida tumanimizda "Inson taftini inson oladi" shiori ostida uyida yotib qolgan hamda shifoxonalarda davolanayotgan nuroniylarning 315 nafarinigsh holidan xabar olinib, ularga moddiy va ma'naviy yordamlar ko'rsatish tadbirlari amalga oshirildi.

*□ Jumladan, "Bog'iston" MFYda tadbir doirasida Bog'iston ko'chasida yashovchi Mirzaboy ota Soliev hamda L.Sarimsoqova ko'chasida yashovchi mehnat faxriysi Mirzanazarhoji Otajonovlar holidan xabar olindi.

□ Haftalik doirasida shuningdek, "Qoshqayron" MFYda yashovchi yakka yolg'iz, bemor keksa yoshidagi fuqarolar xonadoniga kirib, holidan xabar olindi.

???? - Biz kabi keksalarni yo'qlab, holimizdan xabar olishdi, - deydi Bisalima Sharipova. - Gap sovg'a-salomda emas. Shunchaki, e'tiborning o'zi katta baxt. Bir necha yillardan beri bemorligim sababli ko'chaga chiqolmay qoldim. Inson yoshi bir joyga borgach, e'tibortalab bo'lib qolar ekan. E'tibor va g'amxo'rlikdan boshimiz ko'kka yetdi.

Rishton tumani hokimligi Axborot xizmati

2022-10-07 08:50:24